



O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
Samarqand davlat chet tillar instituti
BUYRUG'I

31 may 2024 yil.

109/-son

**2024/2025 o'quv yili uchun qabul
komissiyasi mas'ul kotibini
tayinlash va qabul komissiyasi
faoliyatini samarali tashkil etish
to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-60-sonli qarori ijrosini ta'minlash hamda institutda 2024/2025 o'quv yilida qabul komissiyasi faoliyatini samarali tashkil qilish, abituriyentlar va ularning ota-onalariga institut, mavjud bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari hamda qo'shma ta'lim dasturlari haqida atroflicha ma'lumot berish, institutni targ'ib qilish, ijodiy (kasbiy) imtihonlarni o'tkazish va test sinovlari natijalariga ko'ra talabalar qabulini yuqori saviyada tashkil qilish maqsadida

BUYURAMAN:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-60-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Institutning 2024/2025 o'quv yili bo'yicha qabul komissiyasi mas'ul kotibi sifatida Ingliz filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti dekani Erkinov Suxrob Erkinovich tayinlansin.

3. 2024/2025 o'quv yilida qabul komissiyasi faoliyatini samarali tashkil qilish va talabalarni qabul qilish jarayonlarini yuqori saviyada o'tkazish uchun qabul komissiyasi tarkibi 1-ilovaga, qabul jarayonlarida abituriyentlar va ularning ota-onalari murojaatlariga tezkorlik bilan javob berish, ularga maslahatlar berish hamda test jarayonlariga tashkiliy jihatdan puxta tayyorgarlik ko'rish uchun Ishchi guruhlar tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Mas'ul kotib (S.Erkinov)ga:

2024/2025 o'quv yilida qabul komissiyasi faoliyatini samarali tashkil qilish va talabalarni qabul qilish jarayonlarini yuqori saviyada tashkillashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish;

ishlab chiqilgan chora-tadbirlar asosida tizimli ishlarni amalga oshirish vazifalari yuklatilsin.

5. Devonxona mudirasi (N.Daniyarova) mazkur buyruqni o'rnatilgan tartibda tegishli mas'ullarga yetkazilishini ta'minlasin.

6. Ushbu buyruq ijrosining nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.

Asos: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-60-sonli qarori.

Rektor v.v.b.



F. Ruzikulov